


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 3022,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,6 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (27,0 %), savdo xizmatlari (23,5 %), moliyaviy xizmatlar (17,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.


2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 2423,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan (598,7 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2019-yil yanvar-iyun oyi davriga nisbatan xizmatlar hajmi (460,7 mlrd. so'mga) ko'paydi.

2019-yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (127,8 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (104,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (86,0 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (29,4 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3022,6	116,6
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	190,0	110,9
moliyaviy xizmatlar	537,5	178,2
transport xizmatlari	817,0	112,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	425,5	101,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	91,0	103,3
savdo xizmatlari	710,2	103,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	101,2	102,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	119,7	118,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	33,8	101,1
ijara xizmatlari	68,6	109,5
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	92,6	102,4
shaxsiy xizmatlar	115,5	106,6
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	59,6	128,5
boshqa xizmatlar	85,9	102,8

**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 Xizmatlar - jami
2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
3 Moliyaviy xizmatlar
4 Transport xizmatlari
5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari
6 Savdo xizmatlari
7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar
9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
10 Ijara xizmatlari
11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yichaxizmatlar
12 Shaxsiy xizmatlar
13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
14 Boshqa xizmatlar |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|


2019-yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (78,2 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (28,5 %); talim sohasidagi xizmatlar (18,1 %); kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	27,0 %
Savdo xizmatlari	23,5 %
Moliyaviy xizmatlar	17,8 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,3 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,0 %
Shaxsiy xizmatlar	3,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,3 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,1 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0 %
Boshqa xizmatlar	2,8 %
Ijara xizmatlari	2,3 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	2,0 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (27,0 %), savdo xizmatlari (23,5 %), moliyaviy xizmatlar (17,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	817,0 mIrd. so'm
	Savdo xizmatlari	710,2 mIrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	537,5 mIrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	247,9 mIrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	190,0 mIrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	119,7 mIrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	115,5 mIrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	101,2 mIrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	92,6 mIrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	91,0 mIrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (817,0 mIrd. so'm), savdo xizmatlari (710,2 mIrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (537,5 mIrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (190,0 mIrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2019-yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari hajmi 710,2 mlrd. so'mga teng bo'lди. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 23,5 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,2 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 7,1 % ni egallaydi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovation bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlарini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 537,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 178,2 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi
71-230-82-15**